



O‘zbekiston Respublikasi
Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
**“Davlat ishtirokidagi korxonalarni
boshqarish, davlat aktivlarini
xususiylashtirish va boshqa sohalarda
2023-yildagi faoliyati to‘g‘risida”**

HISOBOTI

MUNDARIJA

T/R	Hisobot nomi	Sahifa
	Kirish.	2
I. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish		
1.1	Davlat ishtirokidagi korxonalar, ularda korporativ munosabatlarni ta'minlashni tashkil etish holati.	5
1.2	Davlat aktivlarining hisobini yuritish jarayoni.	9
II. Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari		
2.1	Davlat aktivlarini xususiylashtirish.	11
2.2	Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanishni tashkil etish.	14
III. Davlat aktiv agentligining boshqa faoliyat yo'nalishlari		
3.1	Baholash va rieltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish.	16
3.2	To'lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish.	23
3.3	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish.	25
3.4	Xalqaro hamkorlik masalalari.	27
IV. "E-auksion" elektron savdo platformasi faoliyati		
4.1	Davlat aktivlarini auksion savdolariga chiqarilishi.	31
4.2	Davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlarini realizatsiya qilish va ijaraga berish holati.	32
4.3	Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida.	33
	Xulosa	36

Kirish

“Tarkibiy islohotlarning yana bir yo‘nalishi bu – davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishdir. Biz davlat aktivlarini ochiq-oshkora va samarali sotish uchun, xalqaro moliyaviy va huquqiy maslahatchilarni jalb etgan holda, qator korxonalarni xususiy lashtirishga oid keng qamrovli ishlarni boshladik.”

***Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.***

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining (keyingi o‘rinlarda – Davlat aktiv agentligi) 2023-yildagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida asosiy maqsad va yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan **davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini cheklash, davlat va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoitlar yaratish, shuningdek, tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish orqali iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini oshirishga** qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, Davlat mulkini boshqarishni tartibga soluvchi mustaqil O‘zbekiston tarixida birinchi muhim hujjat – **“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi** O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi (2023-yil 9-mart, O‘RQ-821).

Ushbu Qonun bilan davlat mulkini boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, davlat mulkini boshqarish prinsiplari, davlat mulkiga egalik qilish mezonlari, davlat mulkini boshqarish subyektlarining aniq vazifalari, davlat mulkini boshqarish sohasida davlat siyosatining yo‘nalishlari, **mulkdor va tartibga solish vazifalarini ajratilishi**, davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari belgilab berildi.

Mazkur Qonun talablari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan **Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasida** davlat korxonalari sonini 2025-yilga qadar **75 foizga** qisqartirish maqsadiga erishish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2023-yil yakuni bo‘yicha davlat ishtirokidagi korxonalar soni **50 foizga qisqartirildi**.

2020– 2023-yillarda **2,5 ming ta** davlat aktivlarining xususiy lashtirilishi natijasida iqtisodiyotga **1 mlrd. dollardan** ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etildi, **79 mingdan ortiq** yangi ish o‘rinlari yaratildi, xususiy lashtirilgan korxonalarining soliq tushumlari **1,3 barobarga**, sof aktivlari **1,5 barobarga** oshdi.

Xususan, 2023-yilda xususiy lashtirish dasturlariga asosan **20,9 trln. so‘mlik 5,3 mingdan** ortiq aktivlar, shu jumladan davlat ulushlari, ko‘chmas mulk obyektlari va yer uchastkalari ommaviy savdolarga chiqarilgan, ushbu

aktivlarning **2 008 tasi** **11,4 trln. so'mga** sotilishi va xususiylashtirish jamg'armasiga **9,6 trln. so'm tushum ta'minlandi**.

Ilk bor "Ipoteka bank" chet elning OTP Bankiga (Vengriya), "Farg'onaazot" AJ ustav kapitalidagi 99,02 foiz davlat aksiya paketi Singapurning "Indorama Corporation" kompaniyasi va "Birinchi rezinotexnika zavodi" MChJ ustav fondidagi 100 foiz ulushi "Tatneft" AJga sotildi.

2023-yilda davlat muassasalarining **304 tasi** tugatildi, **208 tasi** filialga va **2 ta** davlat unitar korxonalarini mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga aylantirildi. 2023-yil 31-dekabr holatiga davlat ulushi mavjud korxonalar hamda davlat unitar korxonalarini soni **2 116 tani** tashkil etdi, jumladan **237 ta** AJ, **1 362 ta** MChJ va **517 ta** DUK.

Bundan tashqari, muttasil o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, aniqlangan **3 494 ta** bo'sh turgan obyektlar (**2 149 tasi davlat**, **1 372 tasi davlat ishtirokidagi korxonalar obyektlari**) bo'yicha **2 547 tasi** xususiylashtirish dasturlariga asosan sotilishi belgilandi va **1 028 tasi** 2024-yilgi yangi xususiylashtirish dasturiga kiritildi.

Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan **64 mingdan ortiq** (**7 294 gektar**) yer uchastkalari auksion savdolariga chiqarildi. 2023-yilda **13 mingdan ortiq** (**1 956 gektar**) yer uchastkasi **1,2 trln. so'mga** yoki boshlang'ich narxiga nisbatan **441,2 mlrd. so'mga** yoki 156% qimmatroq sotildi.

Xususan, 2023-yil noyabr oyida Toshkent viloyati, Toshkent tumanidan narxi **412,4 mln. so'm** bo'lgan **7 sotix** yer uchastkasi oshxona, kafelar, savdo uylari qurish uchun **mulk huquqi** bilan **3,6 mlrd. so'mga** sotildi.

O'tgan hisobot yilida davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarish, ularda zamonaviy korporativ usullarini keng joriy etish yuzasidan ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, birinchi marotaba Davaktiv agentligi ishtirokidagi **64 ta** korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha **314 nafar** a'zolik o'rinlariga maxsus veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali **ommaviy tanlov e'lon qilindi**.

Tanlovda ishtirok etish uchun talabgorlardan **845 ta** (**2,5 barobar ko'p**) arizalar kelib tushgan, ushbu nomzodlardan **262 tasi 54 ta** korxonaga nomzodlar sifatida tanlab olinib, ularni saylash yuzasidan takliflar yuborildi.

2023-yil **31 ta** Davaktiv agentligi ishtirokidagi davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarining ijroiya organiga **34 ta** yangi rahbarlar tayinlandi, shuningdek, **8 ta** korxonaning **9 ta** rahbarlik lavozimlariga o'rnatilgan tartibda tanlovlar o'tkazildi va boshqaruv organlarining qarorlari bilan lavozimga tayinlandi.

Shuningdek, "Toshkent" RFB AJ, "O'zagrosug'urta" AJ, "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" AJ, "UZVC" milliy venchur fondi" MChJ, "Qo'qon mexanika zavodi" "O'zavtosanoat", "O'zbektelekom", "Uzbekistan airways", "Uzbekistan airports", "Olmaliq KMK" AJ va boshqalar kabi

jami **15 ta** korxonalar **kuzatuv kengashlari tarkibiga 39 ta xorijiy tajribaga ega mustaqil a'zolar** kiritildi.

Davlat ko'chmas mulkini ijaraga berish hisobiga umumiy qiymati **278,6 mlrd. so'mlik 23 740 ta** (*maydoni 5,4 mln. kv.m*) ijara shartnomalari tuzildi va natijada **339,2 mlrd. so'm** tushum ta'minlangan, shundan **89,6 mlrd. so'm** mablag'lar mahalliy budjetlarga yo'naltirildi.

Xususan, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilishi universiteti balansidagi Samarqand shahar, X.Abdullayev ko'chasi, 63-uy manzilida joylashgan **8 600,0 kv.metr**dan iborat bo'sh turgan binosi "Toshkent kimyo xalqaro universiteti" MChJga yillik **1,7 mlrd. so'm** qiymatda **ijaraga berildi**.

Hokim yordamchilari tomonidan **elektron platformaga jami 5 636 ta buyurtmanomalar yuborilgan** (*1 189 tasi sotish, 1 528 tasi ijaraga berish va 2 919 tasi yer uchastkasi masalasida*) bo'lib, shundan **341 tasi** qabul qilinib, ularning **17 tasi** sotish (*4 tasi sotilgan*), **324 tasi** ijaraga berish uchun auksion savdolariga chiqarilgan (*109 tasi ijaraga berilgan*).

2023-yilda **206 ta** baholovchilarga va **159 ta** rieltorlarga malaka sertifikatlari **berilgan**.

Shu bilan birga, 2023-yilning hisobot davrida **14 779 ta** korxonalarda (*mulki mavjud – 348 ta*) tugatish ishlari olib borildi, ularning **6 775 tasida** tugatish ishlari yakunlangan (*mulki mavjud – 116 ta*), qolgan **8 004 tasida** tugatish ishlari davom etmoqda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (**my.gov.uz**) orqali qo'shimcha **5 ta davlat xizmatlarini** ko'rsatish **yo'lga qo'yilib, ularning soni 15** taga yetkazildi.

Ta'kidlash joizki, Davaktiv agentligi faoliyatini **raqamlashtirish, transformatsiya holati reytingida 43 ta** davlat organlari o'rtasida **92,17 foiz** natija bilan **ikkinchi o'rinni egalladi**.

Hisobot davrida targ'ibot va tashviqot ishlari ham faol amalga oshirildi. Jumladan **671 ta** chiqishlar (*105 ta TV va radio, 184 ta gazeta va jurnallar, 382 ta ijtimoiy tarmoqlar va bosh*) **2 ta brifinglar** va **1 ta matbuot anjumani**, shuningdek, xususiylashtirish jarayonlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha hududlarda **Roadshow taqdimotlari** o'tkazildi.

12 ta yuqori darajadagi xalqaro **forumlarda** xorijiy ishbiarmon soha vakillari uchun **xususiylashtirish** va **korporativ boshqaruv** yo'nalishlari bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi, xususiylashtirish dasturi to'g'risida taqdimot tayyorlanib, broshyuralar va taqdimot materiallari **Toshkent, Samarqand, Istanbul** va **Dubay Xalqaro Aeroportlariga** hamda Toshkent, Samarqand temir **yo'l vokzallariga**, shuningdek, **yirik mehmonxonalariga** tarqatildi.

Bundan tashqari, savdo jarayonlarining shaffoqligini ta'minlash borasida "E-auksion" elektron savdo platformasida umumiy qiymati **19,7 trln. so'm** bo'lgan aktivlar **336 538 ta lot** elektron savdolarga chiqarildi.

2023-yil davomida “E-auksion” elektron savdo platformasiga **4 mln. 853 ming nafar** foydalanuvchi tashrif buyurdi hamda o‘tkazilgan elektron auksion va tanlov savdolarida **799 049 nafar** jismoniy va yuridik shaxslar qatnashdi.

“E-auksion” savdo platformasida “E-auksionshop” elektron savdo do‘koni yaratilib, davlat daromadiga olingan mol-mulklarni soddalashtirilgan auksion tamoyillari asosida sotish yo‘lga qo‘yildi. Ushbu elektron do‘konida xususiy mulkdorlar uchun ham o‘zlariga tegishli mulklarni sotish imkoniyati yaratildi.

Umuman olganda, Davaktiv agentligining 2023-yildagi faoliyati xususiylashtirish orqali iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish va tadbirkorlarga sharoit yaratish, davlat mulkini samarali boshqarishni tashkil etishga qaratilgan va ushbu vazifalarni bajarish 2024-yilda ham safarbarlik ruhida tashkil etiladi.

A.J.Ortikov

***Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi direktori***

I. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish

1.1 Davlat ishtirokidagi korxonalar, ularda korporativ munosabatlarni ta'minlashni tashkil etish holati

Davaktiv agentligi davlat mulkini boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi sifatida davlat ishtirokidagi korxonalarni samarali boshqarishni tashkil etish va ularda zamonaviy korporativ usullarini joriy etishga qaratilgan quyidagi amaliy ishlar olib borilgan:

1. O'zbekiston Respublikasining **“Davlat mulkini boshqarish to'g'risida”**gi Qonuni qabul qilindi (2023-yil 9-mart, O'QRQ– 821).

Ma'lumot uchun: Qonunda, davlat mulkini boshqarish sohasida **davlat siyosatining yo'nalishlari**, davlat mulkiga egalik qilishning mezonlari, davlat mulki respublika mulki va munitsipal mulkka ajratilishi, davlat organlarining vazifa va funksiyalari aniqlashtirildi, **xususiy lashtirilmaydigan davlat mulki obyektlari ro'yxati tasdiqlandi.**

“Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida”gi Qonun loyihasi (yangi tahrirda) ishlab chiqilib, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishildi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi;

2. Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda quyidagi hujjatlar ishlab chiqildi:

- **Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalari** (yangi tahrirda);

- **Axloq kodeksi** va uni to'laqonli joriy etish uchun **Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati**, **Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati** va **Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati.**

Ushbu hujjatlar **62 ta** yirik korxonalariga joriy etish ishlari boshlandi, hozirda **29 tasiga**, jumladan, “Olmaliq KMK” AJ, “O'zmetkombinat” AJ, “O'zbektelekom” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O'zbekiston pochta” AJ, “O'z kimyosanoat” AJ kabi yirik korxonalariga **joriy etildi.**

3. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-apreldagi 139-son qaroriga asosan **512 ta** korxonalarining tugatilishi va qayta tashkil etilishi ta'minlandi.

4. Davaktiv agentligi ishtirokidagi **64 ta** korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha **314 nafar** a'zolik o'rinlariga maxsus veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali **ommaviy tanlov e'lon qilindi.**

Tanlovda ishtirok etish uchun talabgorlardan **845 ta** (**2,5 barobar ko'p**) arizalar kelib tushgan, ushbu nomzodlardan **262 tasi 54 ta** korxonaga nomzodlar sifatida tanlab olinib, ularni saylash yuzasidan takliflar yuborildi.


5. 2022-yil yakunlari bo'yicha hamda 2023-yil davomida ijro organi faoliyatining samaradorlik muhim ko'rsatkichlari va biznes rejaning asosiy ko'rsatkichlari bajarilmagan **45 ta** Davaktiv agentligi ishtirokidagi, jumladan, “Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati” AJ, “O'zneftgazinformatika” AJ, “O'zenergoinjining” AJ, “O'z-Hanwoo Engineering” MChJ QK kabi yirik korxonalarining **rahbarlari lavozimdan ozod etildi.**

O‘z navbatida, ”Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining talablaridan kelib chiqib, 2023-yilda **31 ta** Davaktiv agentligi ishtirokidagi davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarining, jumladan, “Toshkent RFB” AJ, “Oxangaronshifer” AJ, “Humo air” MChJ, “O‘zsuvta‘minot” AJ, “O‘zenergoinjining” AJ, “O‘z-Hanwoo Engineering” MChJ QK, ijroiya organiga **34 ta yangi rahbarlar tayinlandi**, shuningdek, **8 ta** korxonaning **9 ta** rahbarlik lavozimlariga o‘rnatilgan tartibda tanlovlar o‘tkazildi va boshqaruv organlarining qarorlari bilan lavozimga tayinlandi.

6. Davlat ishtirokidagi korxonalarini 2023-yil 9 oylik yakunlariga ko‘ra, **59,2 trln. so‘m** sof tushum, **1,6 trln. so‘m** sof foyda hamda **2,2 trln. so‘m zarar** bilan yakunlagan.

1- grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalarda ijro organi faoliyati samaradorligi muhim ko‘rsatkichlari (KPI) ning 2023-yil 9 oylik yakuni bo‘yicha joriy etish holati



* Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 674-son qaroriga asosan davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni *har chorak yakunlari bo‘yicha hisobot davrining keyingi oyi davomida, yil yakunlari bo‘yicha keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar* elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda Davaktiv agentligining maxsus axborot tizimida joylashtirib boradi.

7. Zarar ko‘rgan va iqtisodiy tavakkalchilik holatidagi **177 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarini **2023-yilda** moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan “yo‘l xaritalari” – dasturlari ishlab chiqildi. Jumladan:


3 ta korxonalar faoliyatsiz, tugatish jarayonida va qayta tashkil etilgan;

2 ta korxonalarda davlat ulushi sotilgan;

172 ta korxonalarda “Yo‘l xaritasi” ijrosi bo‘yicha monitoringi olib borildi. Shundan 2023-yil 9-oy yakunlariga ko‘ra, **138 ta** korxonalar **2 065 mlrd. so‘m sof foyda** olgan bo‘lsa, qolgan **34 ta** korxonalar **4 249 mlrd. so‘m zarar** bilan yakunlagan bo‘lib, ushbu korxonalarda 2023-yil yakunlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kutilmoqda.

2-grafik

“Yo‘l xarita”-dasturlari ijrosi bo‘yicha monitoring ko‘rsatkichlari



* Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi 674-son qaroriga asosan davlat ishtirokidagi korxonalar biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni **har chorak yakunlari bo‘yicha hisobot davrining keyingi oyi davomida, yil yakunlari bo‘yicha keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar** elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda Davaktiv agentligining maxsus axborot tizimida joylashtirib boradi.

8. "Davlat mulki" avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan Majburiy ijro byurosi (xatlangan va taqiq qo‘yilgan mol-mulk), Davlat soliq qo‘mitasining (dividendlar), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (davlat ishtirokidagi korxonalarida investitsiya loyihalari), Statistika agentligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi axborot tizimlariga **integratsiya qilindi**.

9. Davlat ishtirokidagi korxonalarining 2022-yil yakuni bo‘yicha faoliyati natijadorligi va davlat mulkidan foydalanish holati to‘g‘risidagi Yig‘ma hisoboti shakllantirilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritildi va Davaktiv agentligining veb-saytida e‘lon qilindi.

10. Jahon bankining “IBL” loyihasi doirasida xalqaro tanlov natijalariga ko‘ra “Strikitsa Consulting” Ltd (Buyuk Britaniya) bilan tuzilgan. Shartnoma shartlariga ko‘ra, “Strikitsa Consulting” Ltd kompaniyasi tomonidan davlat ishtirokidagi **38 ta** yirik korxonalarining kuzatuv kengashi tarkibiga **79 ta** mustaqil a‘zolar hamda TOP-100 ta muvaffaqiyatli menejerlardan iborat kadrlar zaxirasini shakllantirilgan.


”Toshkent” RFB AJ, “O‘zagrosug‘urta” AJ, “O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” AJ, “UZVC” milliy venchur fondi” MChJ, “Qo‘qon mexanika zavodi” “O‘zavtosanoat”, “O‘zbektelekom”, “Uzbekistan airways”, “Uzbekistan airports”, “Olmaliq KMK” AJ va boshqalar kabi jami **15 ta** korxonalar **kuzatuv kengashlari tarkibiga 39 ta xorijiy tajribaga ega mustaqil a‘zolar** kiritildi.

11. Davlat ishtirokidagi korxonalarda dividend siyosatini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “**Davlat ishtirokidagi korxonalarining sof foydasidan dividendni (ajratmani) hisoblash va to‘lash tizimini takomillashtirish** chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Hukumatga kiritildi.

12. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2022-yil yakuni bo‘yicha davlat ulushiga hisoblangan dividend (ajratma)lardan davlat budjetiga 2023-yilda **1 056 ta** korxonalar tomonidan **26,0 trln. so‘m** to‘langan.

3-grafik

Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan to‘langan dividend ko‘rsatkichlari



1.2 Davlat aktivlarining hisobini yuritish jarayoni

Davlat mulki va davlat ishtirokidagi korxonalar hisobini yuritish property.davaktiv.uz axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Davlat ishtirokidagi korxonalar 2024-yil 1-yanvar holatiga **2 116 ta**ni tashkil etdi.

Davlat aktivlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha (jami – **28 512 ta**):


- aksiyadorlik jamiyatlari – **240 ta** (25 foizgacha – **43 ta**, 25-50 foizgacha – **41 ta**, 51-99 foizgacha – **112 ta**, 100 foiz – **41 ta**);
- mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – **1350 ta** (25 foizgacha – **104 ta**, 25-50 foizgacha – **146 ta**, 51-99 foizgacha – **570 ta**, 100 foiz – **542 ta**);
- davlat unitar korxonalari – **477 ta**;
- davlat muassasalari – **26 415 tani tashkil etadi**.

Shuningdek, **property.davaktiv.uz** axborot tizimiga **25 851 ta** davlat korxonasi va muassasalari tomonidan o'zlariga birlashtirilgan **73 912 ta** hisob obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan. Jumladan:

- **40 363 ta** ko'chmas mulk obyektlari;
- **33 487 ta** avtotransport vositalari;
- **62 ta** intellektual mulk obyektlaridan iborat.

4-grafik

Davlat aktivlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tahlili



Izoh: Xususiyashtirish dasturlariga asosan davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'lgan korxonalarni ommaviy savdolar orqali sotish uchun davlat tasarrufiga olingan sababli 2023-yilda aksiyadorlik jamiyatlari soni ortgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ–101-son qaroriga muvofiq davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar murojaatlariga asosan Davaktiv agentligi tomonidan **1253 ta** tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi uchun buyruqlar qabul qilingan. Jumladan, **145 ta** yangi tashkil etilgan davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar hamda **1 108 ta** ta‘sis hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha buyruqlarni tashkil etadi.

Davlat muassasalari faoliyatini tartibga solish bo‘yicha qonunchilikdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida Davaktiv agentligi tashabbusiga ko‘ra ishlab chiqilgan Davlat muassasalari to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlandi.

Nizomda davlat muassasasining huquqiy maqomi, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi, tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, filiallari va vakolatxonalarini tashkil etish tartibi, davlat muassasasi faoliyatini nazorat qilish tartibi belgilangan.

Qonunchilik talablari asosida respublika bo‘yicha jami **26 394 ta** davlat muassasalari xatlovdan o‘tkazilib, shundan **24 mingdan** ortig‘i bo‘yicha tahlillar o‘tkazildi.

Tahlil natijalari bo‘yicha qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-apreldagi 139-son qaroriga asosan Respublika bo‘yicha **208 ta** davlat muassasalari filialga aylantirildi, **304 tasi** tugatildi, **428 tasi** bo‘yicha tugatish ishlari amalga oshirilmoqda.


“Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida” Qonunning 22-moddasiga hamda xususiylashtirish dasturlariga asosan 2023-yilda **336 ta** aksiya paketlari (ulushlari) Davaktiv agentligiga o‘tkazilgan.

O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari doirasida Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa davlat idoralari hamda ularning tizimidagi tashkilotlarni ma‘muriy binolarga joylashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi F–26-son farmoyishi qabul qilindi.

Shuningdek, Respublika mulkidan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida davlat ko‘chmas mulk obyektlari bir davlat tashkilotidan boshqa bir davlat tashkilotiga o‘tkazish bo‘yicha Davaktiv agentligining **85 ta qarori qabul qilindi.**

5- grafik

Davaktiv agentligi tomonidan qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida



II. Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari

2.1 Davlat aktivlarini xususiylashtirish


Tegishli xususiylashtirish dasturlariga muvofiq **2023-yilda 20,9 trln. so‘mlik 5,3 mingdan** ortiq aktivlar, shu jumladan davlat ulushlari, ko‘chmas mulk obyektlari va yer uchastkalarini ommaviy savdolarga chiqarilgan.

Ushbu davrda **2 008 ta davlat aktivlari 11,4 trln. so‘mga** sotildi va **9,6 trln. so‘m tushum ta‘minlandi**.

Sotilgan aktivlarning **7 tasi xorijiy investorlarga 532,5 mln. AQSh dollariga** sotilgan. Jumladan, “Farg‘onaazot” AJ ustav kapitalidagi 99,02 foiz davlat aksiya paketi **Singapur Respublikasining “Indorama Petchem b.v.” kompaniyasiga** korxonani modernizatsiya qilish uchun **100,0 mln. AQSh dollari investitsiya kiritish** majburiyati bilan **130,0 mln. AQSh dollariga** sotilgan.

6-grafik

Davlat aktivlarini xususiylashtirish va ulardan tushum (trln.so‘m)




2023-yil davomida **361 ta** jami **2 068,3 mlrd. so‘m** va **1 299,6 mln. AQSh dollari** miqdorida investitsiya kiritish hamda **23 402 ta** ish o‘rni yaratish majburiyatlari bilan sotilgan davlat aktivlari bo‘yicha monitoring olib borildi. Shundan **136 ta** obyekt to‘liq ishga tushirilishi hisobiga **518,8 mlrd. so‘m** va **72,2 mln. AQSh dollari** miqdorida investitsiya kiritildi hamda **6 mingdan ortiq** yangi ish o‘rinlari yaratildi (*kambag‘al toifadagi aholi—437 ta, ayollar—2 009 ta, yoshlar – 1 864 ta*).

44 ta davlat aktivlari bo‘yicha oldi-sotdi shartnomalari xaridorlar tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi sababli belgilangan tartibda **bekor qilindi**.

181 ta sotilgan davlat aktivlariga jami **1 546,8 mlrd. so‘m** va **1 218,9 mln. AQSh dollari** miqdorida investitsiya kiritish, **16 352 ta** ish o‘rni yaratish bo‘yicha majburiyatlar monitoringi olib borilmoqda.

XUSUSIYLASHTIRISH BO'YICHA MA'LUMOT

Xususiylashtirish dinamikasi



2023-yilda xususiylashtirilgan yirik davlat aktivlari

"Ipotekabank" ATB (73,7%)	2,9 trln.	Kvarts AJ	265 mlrd.
"Farg'onaazot" AJ	1,6 trln.	"Angren Pipe Plant" MCHJ	218 mlrd.
Birinchi rezina texnika zavodi	904 mlrd.	Biokimyo AJ	118 mlrd.
Sobiq "Algoritm" zavodi	308 mlrd.	Bino va inshootlar (Nukus ko'chasi 22, 22a va 24-uy)	102 mlrd.
"Qo'qon biokimyo" AJ	277 mlrd.	"Elektrqishloqqurilish" AJ (58,41%)	93 mlrd.
		"O'rta Osiyo Trans" AJ (51,0%)	65 mlrd.

2023-yil xususiylashtirish natijalari

Aksiya paketlari

123 ta korxonalar

\$ 6,1 trln.so'm hajm

6,2 trln.so'm tushum

Ko'chmas mulk obyektlari

1 885 ta davlat ko'chmas mulk obyektlari

\$ 4,1 trln.so'm hajm

1,9 trln.so'm tushum

Yer uchastkalari

1 956 ga Yer maydonidagi 13 111 ta lotlar

\$ 1,2 trln.so'm hajm

0,9 trln.so'm tushum

Umumiy

2023-yil davomida

Hajm - 11,4 trln.so'm

Tushum - 9,6 trln.so'm

2.2 Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanishni tashkil etish


Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi tomonidan davlat mulki bo'lgan bo'sh turgan noturar bino va inshootlarni, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarini aniqlash hamda hisobini yuritish, ularni saqlash va ulardan samarali foydalanish, shu jumladan, ijaraga berishni tashkil etish, ijaraga berilgan davlat mulki obyektlarini va ular bo'yicha mablag'larning hisobini yuritish, davlat tashkilotlari, muassasalari va korxonalarida davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanilishi va ularning saqlanishini belgilangan tartibda tekshirish, ortiqcha qismini, shuningdek, foydalanilmayotgan yoki maqsadsiz foydalanilayotgan davlat mulki obyektlarini olib qo'yish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xatlov natijalariga ko'ra, aniqlangan **3 494 ta** bo'sh turgan obyektlar (**2 149 tasi davlat**, **1 372 tasi davlat ishtirokidagi korxonalar obyektlari**) bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- **2 547 tasi** xususiyashtirish dasturlariga asosan sotilishi belgilandi;
- **1 028 tasi** bo'yicha balansda saqlovchilar bilan ularni xo'jalik faoliyatiga jalb etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

7-grafik

Davlat va davlat ishtirokidagi korxonalariga tegishli bo'sh turgan aktivlardan samarali foydalanish tahlili




Davlat mulkini ijaraga berish.

Respublika bo'yicha ko'chmas mulkni ijaraga berish hisobiga umumiy qiymati **278,6 mlrd. so'm**lik **23 740 ta** (maydoni **5,4 mln. kv.m**) ijara shartnomalari tuzilgan va natijada **339,2 mlrd. so'm** tushum ta'minlangan, shundan **89,6 mlrd. so'm** mablag'lar budjetga yo'naltirilgan.

8-grafik

Davlat mulkini ijaraga berish holati



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-fevraldagi PQ–43-son qaroriga muvofiq 2023-yil 18-sentabr holatiga **12 074 ta** ijara shartnomalari bo'yicha tadbirkorlik subyektlariga **24,3 mlrd. so'm** ijara to'lovlarini **2023-yil 1-martdan boshlab 1-iyulga qadar, teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilgan.**

Shuningdek, jami rasmiylashtirilgan ijara shartnomalaridan 2022-yildan buyon amalda bo'lgan **6 606 ta** ijara shartnomalari bo'yicha ijara to'lovlari miqdori 2023-yil 1-aprelga qadar o'zgarishsiz qoldirilgan.

Hokim yordamchilari tomonidan berilgan buyurtmanomalar bo'yicha:

Hokim yordamchilari tomonidan **elektron platformaga jami 5 636 ta buyurtmanomalar kelib tushgan** (**1 189 tasi** sotish, **1 528 tasi** ijaraga berish va **2 919 tasi** yer uchastkasi masalasida).

Shundan:

- **341 tasi** qabul qilinib, ularning **17 tasi** sotish (**4 tasi** sotilgan), **324 tasi** ijaraga berish uchun auksion savdolariga chiqarilgan (**109 tasi** ijaraga berilgan);

- **2 379 tasi** bo'yicha tegishli tushuntirish va asoslarni keltirgan holda **rad javobi berilgan**;

- **2 200 tasi** "Yerelektron.uz" dasturiga o'tkazilgan va **716 tasi** hokim yordamchilari tomonidan takroran yoki xato yuborilgan.

III. Davaktiv agentligining boshqa faoliyat yo'nalishlari

3.1 Baholash va rieltorlik faoliyatini muvofiqlashtirish

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada keng shart-sharoitlarni yaratish hamda professional jamoat birlashmalari mavqeyini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Baholash faoliyati to'g'risida"gi hamda "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunlariga 2021-yil 13-oktabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib unda, baholovchi va rieltorlik tashkilotlari uchun litsenziyaga ega bo'lish talabi bekor qilingan.

Shunga ko'ra, baholash va rieltorlik faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida 2023-yilda quyidagi ishlar amalga oshirildi:


1. Baholovchi va rieltorning malaka sertifikatini olish uchun talabgorlardan arizalar qabul qilish, malaka sertifikatini rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirish hamda baholovchilarga toifa guvohnomalarini berish jarayonlarini **to'liq Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** (my.gov.uz) orqali **yo'lga qo'yildi**.

Davaktiv agentligi tomonidan baholovchilar va rieltorlarning malaka sertifikatini olish uchun muntazam ravishda malaka imtihonlari tashkillashtirilmoqda. Mazkur malaka imtihonlari Davaktiv agentligining hududiy boshqarmalarida o'tkaziladi va imtihon jarayoni videotasvir orqali to'g'ridan-to'g'ri (youtube.com) olib ko'rsatiladi.

2023-yil boshidan **206 ta** baholovchilarga va **159 ta** rieltorlarga malaka sertifikatlari **berilgan bo'lib**, bugungi kunga respublikada jami **876 ta** baholovchida va **586 ta** rieltorda malaka sertifikatlari **amal qiladi**.


9-grafik

Baholash va rieltorlik faoliyati to'g'risida



Hududlar kesimida respublikadagi **876 ta** malaka sertifikatiga ega baholovchilar jami soniga nisbatan Toshkent shahrida **27 foiz (238 ta)** bo'lsa, Navoiy, Surxondaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarda bu ko'rsatkich **5 foizdan** kam.

10-grafik




Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotiga ko'ra, respublikada **592 372 ta** korxonalar va tashkilotlar faoliyat olib bormoqda va ularning **20 foizi (117 812 ta)** Toshkent shahrida faoliyat olib bormoqda.

Baholashning asosiy iste'molchilari tadbirkorlik subyektlari bo'lganligi sababli ularning **asosiy konsentratsiyasi Toshkent shahridaligini izohlash mumkin.**


Bugungi kunda respublikada **586 ta** malaka sertifikatiga ega rieltorlar faoliyat olib bormoqda. Hududlar kesimida jami soniga nisbatan Toshkent shahrida **46 foiz (267 ta)**, Samarqand viloyati **19 foiz (110 ta)**. Toshkent viloyati **6 foiz (35 ta)** va Buxoro viloyati **5 foiz (27 ta)** bo'lsa, qolgan hududlarda bu ko'rsatkich **5 foizdan** kam.

11-grafik



E-notarius.uz portali ma'lumotiga ko'ra respublikada **323 313 ta** ko'chmas mulk bilan bitimlar (*oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash*) amalga oshirilgan va ularning **27 foizi (87 854 ta)** Toshkent shahrida amalga oshirilgan.

12-grafik



Yuqoridagilardan kelib chiqib, rieltorlarning asosiy qismi **Toshkent shahrida faoliyat olib borilishini izohlash mumkin.**

2. Yagona milliy baholash standartini qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yuzasidan konsultant sifatida tanlab olingan **PwC kompaniyasi** tomonidan Yagona milliy baholash standartini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar taqdim etildi.

Shu bilan birga, baholash sohasidagi professional jamoat birlashmalaridan takliflar olinib, **Yagona milliy baholash standartining (YMBS) yangi tahriri ishlab chiqildi (ID-85337)** hamda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilib, kelib tushgan takliflar asosida standart loyihasi qayta ishlab chiqildi va **Adliya vazirligida 2023-yil 28-dekabrda 3487-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.**

YMBSning yangi tahriri umume'tirof etilgan xalqaro baholash standartlari (*IVS, EVS, USPAP, RICS va boshqalar*) asosida bozor konyunkturasi hisobga olgan holda baholashda yagona yondashuvni ta'minlaydi hamda baholash jarayonida obyektivlikni ta'minlash uchun asos yaratadi, shuningdek baholovchilarga bozor tebranishlari, iqtisodiy tendensiyalar va boshqa tegishli omillar ta'sirini hisobga olish imkonini beradi, bu esa oxir-oqibatda aktivning haqiqiy bozor qiymatini shakllantirishga yordam beradi.

YMBS mustaqil va xolis baholash tizimini rivojlantirishga, baholash xizmatlarining professional darajasi va sifatini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, baholash qonunchiligini bir xil talqin qilinishini ta'minlaydi va mahalliy baholash tizimiga ishonchni oshiradi.

3. Baholash va rieltorlik sohasidagi xorijiy tajribani o'rgangan holda **“Baholash faoliyati to'g'risida”** va **“Rieltorlik faoliyati to'g'risida”**gi Qonunlarning yangi tahrirdagi dastlabki loyihalari ishlab chiqildi.

Qonun loyihalari baholash va rieltorlik faoliyati sohasida huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish, baholash va rieltorlik xizmatlari sifatini oshirish va mamlakatimizda xususiy mulk daxlsizligi va mol-mulkning haqiqiy bozor bahosini shakllantirish va ishonchligini ta'minlash imkonini beradi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda **“Baholash faoliyati sohasida xizmatlar sifatini oshirish, o'zini o'zi boshqarish mexanizmini rivojlantirish hamda ekspertiza jarayonlarini tartibga solish va raqamlashtirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining **“Baholash to'g'risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazish mexanizmini tasdiqlash haqida”** 2008-yil 28-iyuldagi 161-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 725-son qarori qabul qilindi.**

Qarorga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar baholash sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, shuningdek, baholash to'g'risidagi hisobotlar ekspertizasini amalga oshirish jarayonlarini raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta'minlash, baholash tashkilotlarining professional jamoat birlashmalarida o'zini o'zi boshqarish mexanizmini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, nizoli vaziyatlarda baholash obyektlari bo'yicha baholash materiallarini sudlar so'rovlariga ko'ra Ekspert komissiyasi tomonidan ekspertizadan o'tkazish mexanizmini takomillashtirish va shu orqali fuqaro va tadbirkorlik subyektlariga baholash xizmatlari ko'rsatish sifatini yanada oshirishga erishiladi.

5. O'zbekiston Respublikasining **“Baholash faoliyatining yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”**gi (**“Baholash faoliyati to'g'risida”**gi va **“Sud ekspertizasi to'g'risida”**gi) Qonuni loyihasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 29-dekabrda 140-sonli bayoniga asosan, **Oliy Majlis palatalariga ko'rib chiqish uchun kiritildi.**

6. Baholash xizmatlari iste'molchilari tomonidan baholovchi tashkilotlar holatini shaffoflik, ishonchlilik va raqobat prinsiplari asosida tahlil va prognoz qilish, ularning bozorda egallagan o'zni hamda boshqa mezonlarga qarab tahlil qilish maqsadida 2023-yil 14-noyabrda **“Baholovchi tashkilotlarning reytingi va renkingini yuritish tartibi to'g'risida”**gi Nizom tasdiqlandi va **baholovchi tashkilotlarning reytingi va renkingini aniqlash joriy etildi.**

Reyting va renkinglarni joriy etilishi natijasida baholash tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va baholash sohasida malakali baholovchilarni tayyorlash, ular malakasini muntazam ravishda oshirib borish orqali baholash tashkilotlari salohiyatini oshirilishiga erishiladi.

7. Davaktiv agentligining www.davbaho.uz domenida Baholash faoliyatining yagona axborot platformasida baholovchi tashkilotlar tomonidan baholash faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar shakli elektron raqamli imzo (*E-Imzo*) orqali taqdim etilishi yo'lga qo'yilgan.

“Baholash faoliyatining yagona axborot platformasi” elektron dasturi takomillashtirildi.

Platformaga **6 ta** yangi sahifalar qo'shilib (“Normativ huquqiy hujjatlar”, “Sohaga oid loyihalar”, “Statistika”, “Ekspertiza”, “Reyting” hamda “Jamoat tashkilotlari”) ular tegishli ma'lumotlar bilan to'ldirildi.


Shuningdek, Platformaga kelib tushgan ma'lumotlar asosida yangi faoliyatini boshlagan baholovchi tashkilotlar reyestrini shakllantirish, baholash xizmatlarini tahlil qilish, baholovchi tashkilotlar faoliyati bo'yicha elektron raqamli imzo orqali ma'lumotlarni olish, jamlash va tahlil qilish hamda taqdim etilgan ma'lumotlar yakuniga ko'ra, baholovchi tashkilotlar reytingini aniqlash imkoniyatlari yaratildi.

8. Sudlar so'rovlariga ko'ra ekspertizadan o'tkazish bo'yicha **43 marotaba** Ekspert komissiyasi ishi tashkil etilib, **24 ta ekspert xulosalari tayyorlanib sudlarga yuborildi** (bunda **206,8 mlrd. so'mlik** baholash qiymatiga ega bo'lgan obyektlar bo'yicha hujjatlar ko'rib chiqilib, xulosalar berildi).

9. 2023-yil davomida jami **12 ta** (*Toshkent shahri 1 ta, Qashqadaryo viloyati 7 ta, Surxondaryo 4 ta*) baholovchilarning **malaka sertifikatlari amal qilishi muddatidan oldin tugatilgan.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH FAOLIYATIGA OID ASOSIY MA'LUMOTLAR

BAHOLASH XIZMATLARI TURLARI



BAHOLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



BAHOLASH FAOLIYATI SOHASIDAGI PROFESSIONAL JAMOAT BIRLASHMALARI

Baholovchi tashkilotlar assotsiatsiyasi	124 ta tashkilot a'zo
O'zbekiston baholovchilar, ekspertlar va maslahatchilar jamiyati	73 ta tashkilot a'zo
O'zbekiston Baholovchilar jamiyati	56 ta tashkilot a'zo
Toshkent viloyati baholovchilar jamiyati	51 ta tashkilot a'zo

BAHOLASH SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH

Baholovchilarga "malaka sertifikatini" berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq avtomatlashtirildi ("my.gov.uz") hamda 2023 yilida 570 ta talabgordan arizalar kelib tushdi va shundan QR-kod bilan rasmiylashtirilgan 206 ta sertifikatlar berildi.

BAHOLASH FAOLIYATINING YAGONA AXBOROT PLATFORMASI


Yagona axborot platformasida (www.davbaho.uz) baholash xizmatlarini ko'rsatish sohasini tahlil qilish, baholovchi tashkilotlar va baholovchilar reyestrini yuritish imkonini beruvchi yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi hamda baholovchi tashkilotlarning reyting va renkingi joriy etildi.

BAJARILGAN BAHOLASH XIZMATLARI ISH HAJMI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID ASOSIY MA'LUMOTLAR

RIELTORLIK XIZMATLARI TURLARI



RIELTORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

- 01** Rieltorlik faoliyatini tartibga soluvchi yagona umumlashtirilgan normativ hujjat – "Rieltorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish va Rieltorlik xizmatlarining milliy standartlarini takomillashtirish
- 02** Sohada o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida jamoat birlashmalarini mavqeni oshirish
- 03** Rieltorlik tashkilotlarida jinoyi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalariga rioya etish yuzasidan vakolatli organ bilan birgalikda tegishli ishlarni amalga oshirish
- 04** Ko'chmas mulk bozorini raqamli transformatsiya qilish, yashirin aylanmani qisqartirish, rieltorlik xizmatlarini "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatish imkonini beruvchi xususiy Milliy multiling tizimlarini yaratish va amaliyotga tadbiiq etishda ko'maklashish

RIELTORLIK FAOLIYATI SOHASIDAGI PROFESSIONAL JAMOAT BIRLASHMALARI

Rieltorlik tashkilotlari uyushmasi



O'zbekiston Rieltorlar gildiyasi



RIELTORLIK SOHASIDA DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISH



Rieltorlarga "malaka sertifikatini" berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq avtomatlashtirildi ("my.gov.uz") hamda 2023 yilda 294 ta talabgordan arizalar kelib tushdi va shundan QR-kod bilan rasmiylashtirilgan 159 ta sertifikatlar berildi

RIELTORLIK FAOLIYATINING YAGONA AXBOROT PLATFORMASI



Yagona axborot platformasida (www.davbaho.uz) rieltorlik xizmatlarini ko'rsatish sohasini tahlil qilish, rieltorlik tashkilotlari va rieltorlar reyestrini yuritish imkonini beruvchi yagona elektron ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

KO'RSATILGAN RIELTORLIK XIZMATLARI HAJMI




3.2 To'lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish

1. 2023-yilning hisobot davrida **14 781 ta** (2 824 tasi 2022-yildan o'tgan, 11 957 tasi 2023-yilda bankrot deb topilgan) korxonalarda (mulki mavjud – **348 ta**) tugatish ishlari olib borilib, ularning **6 777 tasida** (4 828 tasi 2023-yilda bankrot deb topilgan) tugatish ishlari yakunlangan (mulki mavjud – **116 ta**), qolgan **8 004 tasida** (mulki mavjud – **232 ta**) tugatish ishlari davom etmoqda.

13-grafik

To'lovga qobiliyatsizlik jarayonlari to'g'risida



Mulki mavjud tugatish ishlari olib borilayotgan **232 ta** korxonadan:

- **67 tasining** mol-mulklari **912,3 mlrd. so'm** boshlang'ich qiymatda "E-auksion" elektron-onlayn savdosiga chiqarilgan;

- **68 tasida** xatlov, **35 tasida** baholash, **18 tasida** uchinchi shaxslardan mulkini qaytarish bo'yicha sud jarayonlari olib borilmoqda;

- **8 tasining** mol-mulklari **9,6 mlrd. so'mga** sotilgan, **19 tasining** mol-mulklari kreditorlarga, **3 tasining** mol-mulklari samarali foydalanish uchun sud hujjatlariga asosan mahalliy hokimliklarga berilgan hamda **14 tasining** faoliyatini tiklash choralari ko'rilmogda.

Bankrot korxonalarining jami **392,9 mlrd. so'mlik** kreditorlik qarzdorliklari, xususan, soliq va yig'imlardan **30,1 mlrd. so'm**, ish haqidan **11,7 mlrd. so'm**,

bank kreditidan **202,3 mlrd. so‘m** hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan **148,8 mlrd. so‘m** qarzdorliklari qoplangan.


Shuningdek, iqtisodiy sudning ajrimlariga asosan **10 ta** korxonalariga nisbatan to‘lovga qobiliyatsizlikning **sud sanatsiyasi** hamda **3 ta** korxonalariga nisbatan **tashqi boshqaruv** taomillari joriy etilib, sanatsiya va tashqi boshqaruv rejalariga muvofiq korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

2. Sud boshqaruvchilari talabgorlariga malaka attestatini berish bo‘yicha davlat xizmati davlat xizmatlari markazlari va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatish amaliyoti joriy etildi.

Shu sababli, **74 nafar** sud boshqaruvchisi talabgori murojaatiga muvofiq ular attestatsiyadan o‘tkazildi va ularning **55 nafariga** sud boshqaruvchisi attestati berildi, natijada ularning umumiy soni **329 taga** yetkazildi.

14-grafik

Sud boshqaruvchilari faoliyati



3. Tadbirkorlik subyektlari uchun xo‘jalik jamiyatining to‘lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) to‘g‘risida ma‘lumotlarni “my.gov.uz” orqali olish imkoniyati yaratildi.

4. 2023-yil 1-dekabrda boshlab, “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan ma‘lumotlarni sud boshqaruvchilari tomonidan o‘z kabineti orqali Davaktiv agentligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

5. “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan amaldagi qonun hujjatlari (21.02.2024-yildagi O‘RQ– 911-son Qonun), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari (12.07.2023-yildagi PF– 109-son farmon) hamda Vazirlar Mahkamasining hujjatlari (21.07.2023-yildagi 304-son qaror) ushbu Qonunga muvofiq lashtirildi.

3.3 Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish

Hisobot davrida Davaktiv agentligi faoliyatini raqamlashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Xususan:

1. 2023-yil I yarim yillik yakuni bo'yicha raqamli transformatsiya holatini reyting baholash natijalariga ko'ra **92,17 foiz** natija bilan davlat organlari o'rtasida **ikkinchi o'rinni egalladi**.

2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (**my.gov.uz**) orqali **5 ta davlat xizmatlarini** ko'rsatish **yo'lga qo'yilib**, ularning soni **15 taga** yetkazildi.

(*"Baholovchilarga toifa berish uchun ariza berish, "Baholovchining malaka sertifikatini qayta rasmiylashtirish", "Rieltorlarning malaka sertifikatini qayta rasmiylashtirish", "Xo'jalik jamiyatining to'lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) to'g'risida ma'lumot olish", Ko'chmas mulk obyektlari va davlat ulushlari xususiyashtirilganligi to'g'risidagi davlat namunasidagi order va sertifikatlarni taqdim etish*).

3. Davaktiv agentligi hamda **11 ta vazirlik va idoralar o'rtasida elektron axborot almashinuvi tizimi yo'lga qo'yildi** (Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kadastr agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Transport vazirligi, Investitsiyalar, savdo va sanoat vazirligi, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Hisob palatasi, Majburiy ijro byurosi, Madaniy meros agentligi).

4. Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Davaktiv agentligining axborotlashtirish obyektlari, rasmiy veb-sayti (davaktiv.uz) va mavjud barcha axborot tizimlari axborot va **kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazildi** hamda **litsenziyalangan dasturiy mahsulotlar** joriy qilindi.

5. "2023-yilda Davaktiv agentligining faoliyatini raqamlashtirish, elektron xizmatlar ulushini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha" O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi o'rtasida (2023-yil 20-fevral, 01/24-20/06-son) tasdiqlangan yo'l xaritasining 6-bandiga asosan, Davaktiv agentligi tizimida 2023-yilning 1-iyunidan boshlab, **"Edo.ijro.uz" tizimi amaliyotga joriy etildi**.

6. Davaktiv agentligi xodimlarining "Axborot xavfsizligi siyosati" yangi talqinini mazmun mohiyatini yetkazish hamda axborot xavfsizligi sohasida bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida, 2023-yilning 13-oktabr kuni **seminar o'tkazildi**.

7. Davaktiv agentligining 2023-yilga mo'ljallangan **axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha** chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, "Kiberxavfsizlik markazi" DUK bilan kelishilib tasdiqlandi va unda belgilangan topshiriqlarni bajarish ishlari olib borildi.

DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING O'NGAN YILDAGI RAQAMLASHTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN VA 2024-YILDA REJALASHTIRILGAN ISHLAR

2023-YILDA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA HOLATI REYTINGIDA

2 o'rin **DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARI ORASIDA** **92,17** natija foiz

Reyting baholash ishlari
5 ta yo'nalishda amalga oshirilgan

- ▶ Ochiqlik va elektron ishtirok indeksida **86.45** % ni
- ▶ Axborot xavfsizligi indeksida **94.6** % ni
- ▶ Faoliyatni raqamlashtirilganlik indeksida **100** % ni
- ▶ Tashkiliy masalalarda **96.71** % ni
- ▶ Elektron davlat xizmatlari indeksida **83.4** % ni

2023-YILDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

 **my.gov.uz** **5** ta Davlat xizmati joriy qilindi

- ▶ Baholovchilarga toifa berish uchun ariza berish
- ▶ Baholovchining malaka sertifikatini qayta rasmiylashtirish
- ▶ Riyeltorlarning malaka sertifikatini qayta rasmiylashtirish
- ▶ Xo'jalik jamiyatining to'lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) to'g'risida ma'lumot olish
- ▶ Sud boshqaruvchilari, ularni attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish va malaka attestatini berish



"AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATINING" yangi talqini ishlab chiqildi



48 typ ochiq ma'lumotlar joylashtirildi



9 ta Vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan integratsiya qilindi



15 ta axborot tizimlariga yangi modullar ishlab chiqildi

2024-YILDA REJALASHTIRILGAN ISHLAR



2 ta Davlat aktivlarini oldi-sotdi va ijara **shartnomalari elektron shaklda tuzish** va ularni **QR-kod qo'yilgan** holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash



1 ta Davlat aktivlarini biznes jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha **mobil ilova** ishlab chiqish



3 ta Davlat aktivlarini biznes jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha **axborot tizimi** ishlab chiqish



1 ta Axborot tizimi va xujjatlarini axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi yuzasidan **ekspertizadan** o'tkazish



85 nafar IT va axborot va kiberxavfsizlik sohasida **malakasi oshiriladi**

4 ta Vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan integratsiya qilish

Payme  

- ▶ Davlat aktivlarini oldi-sotdi va ijara shartnomalari to'lovlarini elektron to'lovlar tizimlari orqali **24/7 rejimida to'lash** imkoniyatini joriy etish
- ▶ Kadastr agentligi bilan davlat aktivlariga berilgan **order va sertifikatlar ma'lumotlari** bo'yicha
- ▶ Soliq qo'mitasi bilan davlat aktivlariga berilgan **order va sertifikatlar ma'lumotlarini** hamda **aktivni taqiqqa qo'yilganligi** bo'yicha
- ▶ Biznesni rivojlantirish banki ATB AJning Biznes portaliga



QR-kod qo'yilgan elektron shaklda



Ягона интерактив давлат хизматлари портали

4 ta Yangi xizmat joriy qilish va **3 ta xizmatni takomillashtirish**

- ▶ Davlat namunasidagi order va sertifikatlar shuningdek, dublikatlarini berish
- ▶ Davlat ulushiga ega korxonalar bo'yicha ma'lumot berish xizmati
- ▶ Davlat mulkining ijara haqi birlamchi miqdorini hisoblash xizmati
- ▶ "E-AUKSION" savdo platformasida nohalol ishtirokchini tekshirish xizmati
- ▶ Baholovchilar malaka sertifikatini berish (VMQ-635-son qarori)
- ▶ Rieltorlar malaka sertifikatini berish
- ▶ Sud boshqaruvchilari talabgorlarini attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish va ularga malaka attestatini berish

3.4 Xalqaro hamkorlik masalalari

Hisobot davrida Davaktiv agentligi faoliyatda xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganib, ularni mamlakatimizda qo'llash, xorijiy investorlarni jalb etish, O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish yuzasidan qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan:

1. 104 ta dan ortiq uchrashuvlar o'tkazildi, **10 ta** sohaga oid vebinar va treninglar tashkil etildi. Shuningdek, **7 ta** xalqaro seminarlarda Davaktiv agentligi xodimlari ishtirok etdi.

2. Jahon banking IBL loyihasi doirasida xorijiy konsultantlarni jalb qilish maqsadida **4 ta texnik vazifalar** ishlab chiqilib, kelishish uchun Jahon bankiga yuborildi.

3. Jeneva shahrida (Shveysariya Konfederatsiyasi) bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasining **Jahon savdo tashkiloti** (JST)ga qo'shilishi bo'yicha **Ishchi guruhining 6-** hamda **7-yig'ilishi** doirasida ishtirok etildi. Bunda, JSTga a'zo bo'lish yuzasidan Davaktiv agentligining tegishli xulosalari, **Yevropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya, Turkiya, Avstraliya, Britaniya, Paragvay** hamda **Shveysariya** davlatlaridan yo'llangan savollarga tegishli asoslantirilgan javoblar tayyorlandi va taqdim etildi.

4. 14 ta Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari bayonlari yuzasidan ma'lumotlar va hamkorlik takliflari tayyorlandi. Jumladan, sotilishi belgilangan davlat aktivlari bo'yicha **Roadshow** va **davra suhbatlarini** o'tkazish bildirilgan.

5. 12 ta yuqori darajadagi xalqaro **forumlarda** xorijiy ishbilarmon soha vakillari uchun **xususiylashtirish** va **korporativ boshqaruv** yo'nalishlari bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **Singapur**ga davlat tashrifi doirasida 2023-yil 16-yanvar kuni tashkil etilgan **O'zbek-Singapur biznes** forumida;

2023-yil 28-fevral 2-mart kunlarida **Berlin** va **Gamburg** shaharlarida tashkil etilgan **Germaniya-O'zbekiston** hamda **"Gamburgda O'zbekiston iqtisodiyoti kuni"** biznes forumlarida;

2023-yil 27-28-aprel kunlari Toshkent shahridagi Kongress zalida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, MDH, Turkiya, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Hindiston, Misr, yaqin Sharq mamlakatlaridan **2,5 mingdan ortiq** ishtirokchi ishtirok yetgan **ikkinchi Toshkent xalqaro sarmoyaviy** forumida;

2023-yil 16-18-may kunlari Samarqand shahrida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) Boshqaruvchilar kengashining 32 yillik yig'ilishi doirasida tashkil etilgan biznes-forum va uchrashuvlarda.

Shuningdek, 2023-yil dekabr oyida o'tkazilgan **O'zbekiston–Angliya, O'zbekiston–Saudiya Arabistoni** hamda **O'zbekiston–Turkiya** biznes forumlarida

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan “O‘zbekistonda xususiylashtirish va korporativ boshqaruv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar” mavzusida taqdimotlar (Roadshow) o‘tkazildi.

Shu bilan birga, xususiylashtirish dasturi to‘g‘risida taqdimotlar tayyorlanib, **1000 ta** broshyuralar va **600 ta** taqdimot materiallari **Toshkent, Samarqand, Istanbul** va **Dubay Xalqaro Aeroportlariga** hamda Toshkent, Samarqand temir **yo‘l vokzallariga**, shuningdek, **yirik mehmonxonalarga** tarqatildi.

6. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda xalqaro investitsiya tashkiloti **“Templeton Asset Management Ltd”** (Singapur) o‘rtasida va **Islom taraqqiyot banki guruhiga kiruvchi Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash islom korporatsiyasi** o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yuzasidan O‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi.

7. 2023-yil 20-iyul kuni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori va **Islom taraqqiyot banki guruhiga kiruvchi Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash islom korporatsiyasi** bosh direktori Usama Kaissi o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish yuzasidan O‘zaro anglashuv memorandumi imzolandi.

8. 2023-yilning 12-oktabr kuni **Germaniya Federal Moliya vazirligi departamenti direktori doktor Andreas Kerst** boshchiligidagi delegatsiya bilan hamkorlikda Davaktiv agentligi xodimlarining institutsional salohiyatini oshirishga qaratilgan **“Davlat aktivlarini boshqarish va xususiylashtirish bo‘yicha Germaniya tajribasi”** mavzusidagi amaliy-seminar;

2023-yil 2-9-dekabr kunlari Germaniya Federal Moliya vazirligi hamda Davaktiv agentligi o‘rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi doirasida O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Davaktiv agentligi vakillaridan iborat delegatsiya a‘zolari **Germaniya Federativ Respublikasida o‘quv amaliy tashrifi tashkil etildi.**



Uchrashuvlar

104 ta



Xorijiy tajriba

20 ta



Forum va seminar

20 ta



Kelishuv va memorandumlar

2 ta

Xorijiy xizmat safarlari



Singapur Respublikasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Singapurga davlat tashrifi



Germaniya federativ Respublikasi

Berlin, Gamburg shaharlarida Germaniya-O'zbekiston hamda "Gamburgda O'zbekiston iqtisodiyoti kuni" biznes forumlari, o'quv amaliy tashrif



Shvetsariya Federativ Respublikasi

Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish bo'yicha Ishchi guruhining 6-7-yig'ilishi



Xitoy Xalq Respublikasi

O'quv amaliy safari



Turkiya Respublikasi

Turkiya-O'zbekiston biznes forumi

Xalqaro moliya institutlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalar



EBRD

Loyiha qiymati:
0,75 mln. dollar
Loyiha soni:
4 ta



World bank

Loyiha qiymati:
8,3 mln. dollar
Loyiha soni:
6 ta



ADB

Loyiha qiymati:
0,3 mln. dollar
Loyiha soni:
2 ta



AFD

Loyiha qiymati:
1,0 mln. dollar
Loyiha soni:
1 ta

Faoliyatdagi xalqaro konsultantlar



giz **KPMG** **IFC**

Deloitte **nestoradvisors** **MANGOLD**
 A MORROW ADVICE COMPANY CONSULTING

IV. “E-auksion” elektron savdo platformasi faoliyati

“E-auksion” elektron savdo platformasi orqali auksion va tanlov savdolarini o‘tkazish, uning inson omilisiz, shaffof tarzda o‘tkazilishi hisobiga yildan yilga ommalashib, undagi savdo turlari oshib bormoqda. Jumladan:

1. “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali 26 turdagi jami 19,7 trln. so‘m boshlang‘ich narx bilan **336 538 ta** mol-mulklar va foydalanish huquqlari auksion va tanlov savdolariga chiqarilgan;

- **auksion savdolariga** jami **19 726,1 mlrd. so‘m** boshlang‘ich narx bilan **92 101 ta** mol-mulklar va foydalanish huquqlari chiqarilgan va **52 873 tasi 8 138,0 mlrd. so‘mga** (**1 657,8 mlrd. so‘m** qimmatroq) realizatsiya qilingan;

- **tanlov savdolariga** qishloq va dehqon xo‘jaligiga mo‘ljallangan **226 586,6 gektar** yer maydoniga ega **244 437 ta** yer uchastkalari chiqarilgan va **198 471,3 gektar** yer uchastkalari bo‘yicha **249 617 ta** tanlov g‘oliblari aniqlangan.

Hisobot davrida o‘tgan auksion va tanlov savdolarida ishtirok etish uchun jami **799 049 ta** arizalar kelib tushgan.

2. Erkin va maxsus iqtisodiy zonalari, Yoshlar va Kichik sanoat zonalari hududidagi yer uchastkalarni elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish:

Erkin va maxsus iqtisodiy zonalari hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun **651 ta (2 041,4 gektar)** yer uchastkalari auksion savdosiga chiqarilib, shundan **214 ta (779,8 gektar)** yer uchastkasi **101,3 mlrd. so‘mga** (boshlang‘ich narxiga nisbatan **19,6 mlrd. so‘mga** qimmatroq) sotilgan.

Yoshlar va Kichik sanoat zonalari hududida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish bo‘yicha **3 892 ta (686,8 gektar)** (*Yoshlar sanoat zonasida 1 071 ta (82,6 gektar), Kichik sanoat zonasida 2 821 ta (604,2 gektar)*) yer uchastkalari auksion savdosiga chiqarilib, shundan **2 068 tasi (418,6 gektar) 101,1 mlrd. so‘mga** (boshlang‘ich narxiga nisbatan **25,8 mlrd. so‘mga** qimmatroq) sotilgan.

3. Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha 2023-yilda 93 681 gektar yer maydoniga ega **242 319 ta** yer uchastkalari tanlov savdolariga chiqarilgan va **93 836 gektar** yer uchastkalari bo‘yicha **247 617 ta** tanlov g‘oliblari aniqlangan.

4. “E-auksion” elektron savdo platformasi banklararo Munis va Anor, Payme, Click, Plum, Oson, Upay, Paynet, Zoomrad, Xazna shuningdek, **banklarning ilovalari** to‘lov tizimlariga integratsiya qilindi va 24/7 rejimida pul to‘ldirish hamda shaxsiy hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini real vaqt rejimida qaytarish yo‘lga qo‘yildi.

4.1 Davlat aktivlarini auksion savdolariga chiqarilishi.

2023-yil davomida boshlang'ich narxi **3,0 trln. so'm** bo'lgan **1 014 ta** davlat ko'chmas mulk obyektlari va ulushlari auksion savdolariga chiqarilgan, shundan boshlang'ich narxi **1,9 trln. so'm** bo'lgan **802 ta** davlat aktivlari **2,5 trln. so'mga** yoki **1,3 barobar** qimmatga realizatsiya qilingan.

Shundan:

- **749 ta davlat obyektlari 2,2 trln. so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **1,4 trln. so'm** bo'lgan **636 ta** davlat obyektlari **1,7 trln. so'mga** yoki **199,2 mlrd. so'm** qimmatga realizatsiya qilingan.

- **116 ta davlat ulushlari 655,0 mlrd. so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **387,1 mlrd. so'm** bo'lgan **51 ta** davlat ulushlari **419,6 mlrd. so'mga** yoki **32,5 mlrd. so'm** qimmatga realizatsiya qilingan.

- **219 ta alohida shartlar asosida sotiladigan davlat aktivlari 150,6 mlrd. so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **74,7 mlrd. so'm** bo'lgan **109 ta** davlat aktivlari **112,2 mlrd. so'mga** yoki **37,5 mlrd. so'm** qimmatga realizatsiya qilingan.

- **30 ta yirik davlat aktivlari** auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan, **6 ta** yirik davlat aktivlari **297,2 mlrd. so'mga** realizatsiya qilingan.

- *Toshkent viloyati, Chirchiq shahridan narxi **11,8 mlrd. so'm** bo'lgan noturar joy (sobiq Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi) bino va inshootlari **26,6 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 4270869).*

- *Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidan narxi **37,0 mlrd. so'm** bo'lgan "Anhor Sayli (sobiq "Aziz" va "Kazbek") dam olish oromgohlari" **61,2 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 4428395).*

- *Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidan narxi **79,7 mlrd. so'm** bo'lgan "Sardoba temir yo'l agrosanoat majmuasi" MChJning 100 foiz davlat ulushi **83,7 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 7773438).*

4.2 Davlat ishtirokidagi korxonalar aktivlarini realizatsiya qilish va ijaraga berish holati

2023-yil davomida boshlang'ich narxi **4,9 trln. so'm** bo'lgan **10 696 ta** ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ustav fondining 50 foizi va undan ortig'i 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslarning (keyingi o'rinlarda – davlat ishtirokidagi korxonalar) ulushlari, ko'chmas mulklari, avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalari auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **2,1 trln. so'm** bo'lgan **4 962 tasi** **2,4 trln. so'mga** yoki **279,7 mlrd. so'm** qimmatga sotilgan/ijaraga berilgan. Shundan:

Boshlang'ich narxi **4,1 trln. so'm** bo'lgan **2 317 ta** davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulklari va ulushlari auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **1,7 trln. so'm** bo'lgan **1 143 tasi** **1,9 trln. so'mga** yoki **214,2 mlrd. so'm** qimmatga realizatsiya qilingan;

- Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidan narxi **102,9 mlrd. so'm** bo'lgan Asakabank AJga qarashli trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish fabrikasi bino-inshootlari hamda mato bo'yash va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish asbob-uskunalari to'plamidan iborat mulkiy majmua **108,1 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 4613263).

- Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidan narxi **30,4 mlrd. so'm** bo'lgan Sanoat-qurilish bank Chilonzor filialiga qarashli kombikorm ishlab chiqarish sexi bino inshootlari **68,5 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 7460677).

Boshlang'ich narxi **720,4 mlrd. so'm** bo'lgan **7 030 ta** Davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqa mol-mulklari auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **270,8 mlrd. so'm** bo'lgan **3 158 tasi** **317,9 mlrd. so'mga** yoki **47,0 mlrd. so'm** qimmatga realizatsiya qilingan;

- Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidan narxi **1,2 mlrd. so'm** bo'lgan "Toshkent Qishloq Xo'jaligi Texnikasi Zavodi" AJga qarashli press stanogi **4,9 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 7432283).

Yillik ijara stavkasi narxi **175,8 mlrd. so'm** bo'lgan **1 349 ta** davlat ishtirokidagi korxonalar ko'chmas mulklari, avtomototransport vositalari hamda boshqa asosiy vositalarini auksion savdolariga chiqarilgan bo'lib, shundan narxi **101,5 mlrd. so'm** bo'lgan **661 tasi** **120,0 mlrd. so'mga** yoki **18,5 mlrd. so'm** qimmatga ijaraga berilgan;

- Toshkent viloyati, Angren shahridan yillik ijara stavkasi **18,3 mlrd. so'm** bo'lgan "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" MChJ tasarrufidagi Angren neftbazasi xamda unga tegishli bino va inshootlar **19,2 mlrd. so'mga** ijaraga berildi (lot raqami – 7695852).

4.3 Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun yer uchastkalarini realizatsiya qilish to'g'risida.

2023-yil davomida Respublika bo'yicha (o'tgan yildan o'tuvchi yerlar bilan birga) maydoni **7 294,0 gektar** bo'lgan **64 295 ta** yer uchastkalari **mulk va ijara huquqida 2,2 trln. so'm** boshlang'ich narxda auksion savdolariga qo'yilgan.

Shundan, maydoni **4 947,2 gektar** bo'lgan **1,4 trln. so'm** boshlang'ich narxdagi **23 210 ta** yer uchastkalari joriy yilda savdoga chiqarilgan.

2023-yilda 13 111 ta, 782,2 mlrd. so'm boshlang'ich narxdagi **mulk va ijara huquqidagi** yer uchastkalari **1 223,3 mlrd. so'mga** yoki **1,6 barobar** qimmatga sotilgan.

Shundan:

- **Mulk huquqi asosida** maydoni **524,6 gektar** bo'lgan **432,4 mlrd. so'm** boshlang'ich narxdagi **9 823 ta** yer uchastkalari joriy yilda savdoga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **362,2 mlrd. so'm**, maydoni **282,5 gektar** bo'lgan **5 411 ta** yer uchastkalari **428,9 mlrd. so'mga** yoki **1,2 barobar** qimmatga sotilgan;

- *Toshkent viloyati, Toshkent tumanidan narxi **412,4 mln. so'm** bo'lgan **0,07 gektar** yer uchastkasi oshxona, kafelar, savdo uylari qurish uchun **mulk huquqi** bilan **3 628,9 mln. so'mga** sotildi. (lot raqami – 7338635).*

- **Ijara huquqi asosida** maydoni **4 360,8 gektar** bo'lgan **895,3 mlrd. so'm** boshlang'ich narxdagi **12 743 ta** yer uchastkalari joriy yilda savdoga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **366,8 mlrd. so'm**, maydoni **1 603,7 gektar** bo'lgan **6 987 ta** yer uchastkalari **515,8 mlrd. so'mga** yoki **1,4 barobar** qimmatga sotilgan;

- *Toshkent shahar, Yashnobod tumanidan narxi **393,1 mln. so'm** bo'lgan **0,02 gektar** yer uchastkasi ofis binolari qurish uchun **ijara huquqi** bilan **3 005,2 mln. so'mga** sotildi (lot raqami – 6648211).*

- **Ko'p qavatli uy-joy uchun** maydoni **61,9 gektar** bo'lgan **66,7 mlrd. so'm** boshlang'ich narxdagi **644 ta** yer uchastkalari joriy yilda savdoga chiqarilgan bo'lib, shundan boshlang'ich narxi **53,1 mlrd. so'm**, maydoni **70,1 gektar** bo'lgan **713 ta** yer uchastkalari **278,7 mlrd. so'mga** yoki **5,3 barobar** qimmatga sotilgan;

- *Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidan narxi **488,3 mln. so'm** bo'lgan **64 sotix** yer uchastkasi ko'p qavatli uy-joy qurish uchun **ijara huquqi** bilan **40,3 mlrd. so'mga** sotildi (lot raqami – 6406492).*

- *Toshkent shahar, Yangi hayot tumanidan narxi **1,9 mlrd. so'm** bo'lgan **20 sotix** yer uchastkasi 9 qavatdan yuqori ko'p qavatli uy-joy qurish uchun **ijara huquqi** bilan **22,8 mlrd. so'mga** sotildi. (lot raqami – 6648221).*

e-auksion.uz



platformasida savdo natijalari



YILLAR	2017-2019	2020	2021	2022	2023
	17	16	19	25	26
	1234	44 668	53 685	583 806	336 538
	29 303	25 469	23 373	475 301	302 490
	868	1 461	1 807	3 868	8 396
	1 048	1 751	2 234	5 501	11 929



Sotiladigan mulk toifasi



Savdoga chiqarilgan mulklar soni (ta)



Sotilgan mulklar soni (ta)



Boshlang'ich narxi (mlrd. so'm)



Sotilgan narxi (mlrd. so'm)

Eng qimmat sotilgan ayrim mulklar



Bino va inshootlar

Sotilgan narxi

102,1 mlrd. so'm



Ishlab chiqarish zavodi bino va inshootlari

Sotilgan narxi

42,9 mlrd. so'm



"Anhor Sayli" dam olish oromgohlari

Sotilgan narxi

61,1 mlrd. so'm



"Sardoba temir yo'l agrosanoat majmuasi" MChJ 100 foiz davlat ulushi

Sotilgan narxi

83,7 mlrd. so'm



"E-AUKSION" ELEKTRON SAVDO PLATFORMASI FAOLIYATI NATIJALARI TO'G'RISIDA MA'LUMOT

2023-yil



SAVDOGA CHIQARILGAN MULKLAR
336 538 ta **19 726 mlrd so'm**

REALIZATSIYA QILINGAN **302 490 ta**

boshlang'ich narxi **8 395 mlrd so'm**
tasdiqlangan narxi **11 929 mlrd so'm**

3 534 mlrd so'm QIMMATROQQA SOTILGAN

MULK TURLARI BO'YICHA AUKSION NATIJALARI

👉 BOSHLANG'ICH NARXI mlrd so'm
👈 TASDIQLANGAN NARXI mlrd so'm



ISHTIROKCHILAR SONI



Davlat aktivlarini sotish va davlat aktivlari ijarasi	35 727
Yer uchastkalari	38 137
Buyurtmachilar mulklari	10 202
Ijro hujjatlari bo'yicha mol-mulkatlar	43 166
Ko'chma savdo joylari	45 391
Boshqalar	15 319
Qishloq va dehqon xo'jaligi yerlari	604 257

Ijro hujjatlari yo'nalishlari bo'yicha

- Davlat foydasiga undirish bo'yicha
- Garov mulklari bo'yicha
- Boshqa ijro hujjatlari bo'yicha



QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI

(VMQ-137 sonli qaror qabul qilinganidan so'ng)

249 617 ta

Normativ qiymati

1 915 mlrd so'm

Qo'shimcha majburiyat

3 791 mlrd so'm



E-AUKSION
Elektron savdo platformasi

XULOSA

Davaktiv agentligining **2024-yildagi asosiy vazifasi ham** iqtisodiyotning xususiy sektor rivojlangan tarmoqlarida **davlat ishtirokini keskin kamaytirish, xususiy sektor faoliyat ko'rsatishi uchun qulay raqobat muhitini yaratish hamda xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish**, davlat ishtirokidagi korxonalarda **zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish** orqali ularni samarali boshqarishni tashkil etish, davlat mulki, shu jumladan, bo'sh turgan **davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish** bo'lib qoladi.

2024-yildagi vazifalarni amalga oshirish uchun Davaktiv agentligi tizimida safarbarlik e'lon qilinadi!